

Setora TO'XTASHEVA

BOYCHESHAK


(She'rlar)

Qarshi
«Nasaf» nashriyoti
2007

84(52)6

Setora ilk to'plamini «Boychechak» deb nomlabdi.
Indan o'rin olgan she'rlardan bolalikning rangin, beg'ubor
a sodda tuyg'ulari ufurib turibdi. U o'z qarashlari va
ayratini borligicha qog'ozga tushirishga harakat qilgan.
imidli qalamkashning mashqlari sizni befarq qoldirmaydi,
eb o'ylaymiz.

10-35008
0



T $\frac{4702620202-50}{376(10)2007}$ 50-2007 S. To'xtasheva, 2007 y

ISBN 5-7323-0520-1

O'ZBEKISTON

Ozod yurt farzandimiz,
Kelajagi porloqmiz.
Gulla, ey, hur bo'stonim,
Mening O'zbekistonim.

Shon-shuhrating bo'lsin abad,
Yildan-yillga bo'lg'in obod.
Jonajonim sen, bo'stonim,
Mening O'zbekistonim.



VATANIM

Jon-u dildan suyganim,
Onajonim-Vatanim.
Doimo ardoqlagum,
Sensan jonim va tanim.

Men sening gul-chechaging,
Baxtli, omon qizingman.
Kelajagi oq, oydin
Jajjigina izingman.



TANISTIRUV

Tanishtiray o'zimni,
Boshlay qolay so'zimni.
Jizza qishloq qiziman,
Bir porloq yulduziman.

Ismim Setorabonu,
Ustoz kasbin sevaman.
Oilamda ikkinchi
Farzand o'zim bo'laman.

Dadajonim Xayrullo,
Rais bobo deydilar.
Onajonim Sofiya
Pazandadirlar juda.

Dildoraxon opamning,
Doim ilmida hushi.
Siroj ukam maktabning
Eng ilg'or o'quvchisi.

Kichik ukam Suhrobjon
Oilamiz kenjasi.
Baxtlidir har kunimiz
Kecha, bugun, ertasi.

ONAJON

Onajonim-jahonim
Siz dunyoda yagona.
O'zingiz mehribonim,
Sajdagohimsiz, ona.

Olam siz-la yaralgan,
Ko'ring bunda qudratin.
Allangizdan taralgan
Kuydan olib orom, tin.

Siz bor, o'ynab-kulaman,
Farishtali kunlarim.
Mudom ta'zim qilaman,
Ko'ksimdadir qo'llarim.



MUALLIM

Ilk maktabga kelganda
Qalam tutgan muallim.
O'z mehrini bizlarga
Taqdim etgan muallim.

Chizish, yozish, o'qishni
O'rgatdingiz, muallim.
Bizni nurli yo'llarga
Boshladingiz, muallim.

Sizga doim baxt tilab
Qolajakmiz, muallim.
Ishonchingizni oqlab
Borajakmiz, muallim.



VATANPARVAR O'G'LONLARGA

Sergakdir har doim, har dam viqorli
O'zbekning o'g'loni- vatanparvari.
Qo'rqmas va g'ururli, botir ham orli
Yovga bermaydi omon, jasurdir bari.

Sizlar-la baxtlidir kun, osuda tunlar
Tinch erur, go'zaldir hayotimiz ham.
Tolmang hech xizmatdan, vatanparvarlar,
Siz borsiz, hech kimdan biz bo'lmaymiz kam.



ORZUIM

Avval ilm olaman,
O'qiyman, izlanaman.
«Intilganga tole yor»,
Deyishadi bobolar.

Nasib bo'lsa bir kuni,
Yetuk inson bo'laman.
Vatanim va xalqim-chun
Dildan xizmat qilaman.



BAHOR KELDI

Bahor keldi, bolalar,
Ochildi gul, lolalar.
Ko'k libosga burkandi
Dasht-u yaylov va bog'lar.

Qir-adirlar lolazor,
Yurtim misli chamanzor.
Gul, chechaklar ochildi,
Chuchmomalar sochildi.

Quyosh nurin sochadi,
Bahri dilni ochadi.
Jaranglar bahor bongi,
Salom, ey, ko'klam tongi.



BOYCHECHAK

Bahordan berar darak,
Ochilibdi boychechak.
Husnini qilib ko'z-ko'z,
Sochilibdi boychechak.

Yellar bilan o'ynashib,
Gullar bilan quvnashib.
Quyoshdek sochiladi,
Chiroyi ochiladi.



DO'STIMGA XAT

Do'stinga yozgan xatim
Salom bilan boshladim.
Meni eshit, tinglagin,
Va javobin yo'llagin.

Yozmoqdaman xatimda
Ezgu tilaklarimni.
Jo'shqin she'rlarda bitib
Dildagi baytlarimni.



KELINCHAK

Yor-yor aytar momolar, keldi kelinchak,
Duo qilar bobolar, keldi kelinchak.
Uy to'riga yarashibdi misli bir chechak,
Chor atrofga fayz taratib, keldi kelinchak.

Qadamidan qut unadi, suluv kelinchak,
Ibo bilan bukiladi go'zal kelinchak.
Xayollari orzusiga bo'lur belanchak,
Taxtdan baxti bisyor bo'lgan baxtli kelinchak.



TADBIRKOR AYOLLAR

Tinib-tinchib turmagan,
Charchash nima bilmagan,
Shaxdam qadam tashlagan,
Bu tadbirkor ayollar.

Yetti o'lchab, bir kesib,
To'g'ri yo'lni ko'rsatar.
Ko'rar qilni qirq yorib,
Bu tadbirkor ayollar.

Eplaydi har ishni,
Kuydir, bichish, tikishni...
Kasb-kor borki, uddalar
Bu tadbirkor ayollar.

MUNDARIJA

O'zbekiston.....	3
Vatanim.....	4
Tanishtiruv.....	5
Onajon.....	6
Muallim.....	7
Vatanparvar o'g'lonlarga.....	8
Orzuim.....	9
Bahor keldi.....	10
Boychechak.....	11
Do'stinga xat.....	12
Kelinchak.....	13
Tadbirkor ayollar.....	14

ADABIY-BADIIY NASHR

SETORA TO'XTASHEVA

BOYCHECHAK

She'rlar
O'zbek tilida

Muharrir: Sh.Pirmatova.
Texnik muharrir: Ch.Rahmonov.
Musahhih: Sh.Mahmudova.
Badiiy bezakchi: J.Norqobilov.

IB 1120

Terishga 30.10.2007-yilda berildi. Bosishga 1.11.2007-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84 x108 $\frac{1}{32}$. Shartli bosma tabog'i 0,84. Shartli bo'yoq-ottisk 0,90. Nashr tabog'i 0,30. 64-2007-shartnoma. 97-buyurtma. 100 nusxada. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 180118. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

Qashqadaryo viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi "Matbaa sexi" da chop etildi. 180118. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uv.